






2020- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **4173,7** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **103,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2020-yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3391 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 273 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **8,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **70,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **27,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,3 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **11,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **21,4 %**) o'sishidir.



Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.11.2019-yil	01.11.2020-yil	
Qashqadaryo viloyati	3046	3270	107,4
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	791	841	106,3
Shahrisabz	130	138	106,2
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	137	147	107,3
Dehqonobod	137	147	107,3
Qamashi	166	176	106,0
Qarshi	350	380	108,6
Koson	254	270	106,3
Kitob	122	132	108,2
Mirishkor	74	83	112,2
Muborak	190	190	100,0
Nishon	122	114	93,4
Kasbi	129	148	114,7
Chiroqchi	174	199	114,4
Shahrisabz	114	117	102,6
Yakkabog'	156	188	120,5


**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.11.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh.(25,7%), Qarshi (11,6%) va Koson (8,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **513,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **80,2 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,7 %** punktga kamayib, **12,3 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,2 %** i yoki 2019-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **100,3 %**), G'uzor (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,5 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **3,7** marta), va Koson tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,9 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **32,7 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,4 %**ni to'g'ri kelib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,4%** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan **108,4 %**ni tashkil etgan holda **2605,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,3 %** ni tashkil etdi yoki **1055,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **105,0 %** ni tashkil etdi*

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**

o'sish sur'ati, % da


ulushi, % da



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **211,1** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3962,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,1 %** va **94,9 %**ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**

ulushi, % da





**Hududlar kesimida qurilish ishlari.
(2020-yil yanvar- oktabr oylarida)**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sinh sur‘ati, % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Qashqadaryo viloyati	4173,7	103,1	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	1030,2	106,0	24,7
Shahrisabz	241,4	105,1	5,8
<i>tumanlar:</i>			
G‘uzor	482,5	101,3	11,6
Dehqonobod	121,7	101,6	2,9
Qamashi	124,7	106,6	3,0
Qarshi	371,6	102,3	8,9
Koson	387,3	100,3	9,3
Kitob	249,9	103,5	6,0
Mirishkor	90,2	102,1	2,2
Muborak	189,5	101,9	4,5
Nishon	164,3	102,6	3,9
Kasbi	110,5	102,5	2,6
Chiroqchi	316,5	101,0	7,6
Shahrisabz	111,1	104,1	2,7
Yakkabog‘	182,3	100,7	4,4

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-oktabr**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 62,4 % i yoki **2604,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

62,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **240,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,2 % ni tashkil etdi

9,2 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1424,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 54,7 % ni tashkil etdi.


54,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 940,0 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 36,1 % ni tashkil etdi.

36,1 %


Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd.so'm.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Qarshi sh. (1030,2 mlrd. so'm), G'uzor (482,5mlrd. so'm), Koson (387,3mlrd. so'm), Qarshi (371,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi
Tel.: 75 221-32-47